



STRATEGIC DIRECTIONS OF STATE SOCIAL POLICY IN WORKING WITH YOUNG FAMILIES

Hasan Imamnazarov

*Independent researcher (PhD) of the Institute for the Study of Youth Problems and Training of Prospective Personnel
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: young families, social policy, state support, strategic directions, social protection, housing problem, employment policy, demographic policy, family welfare, social stability.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article analyzes the relevance of the issue of working with young families, which is one of the priority areas of modern social policy, from a scientific and theoretical perspective. Within the framework of the state's social policy, strategic measures aimed at improving the socio-economic situation of young families, providing them with comprehensive support, improving employment, housing conditions, and ensuring equal access to education and healthcare are considered. The article also analyzes the role and significance of regulatory legal acts, social programs, benefits and subsidies adopted by the state in strengthening the role of young families in modern society. Based on scientific sources, statistical data, and practical examples, important factors for increasing efficiency in developing the social protection system for young families are indicated.

DAVLAT IJTIMOYIY SIYOSATINING YOSH OILALAR BILAN ISHLASHDAGI STRATEGIK YO'NALISHLARI

Hasan Imomnazarov

Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

*Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yosh oilalar, ijtimoiy siyosat, davlat qo'llab-quvvatlovi, strategik

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy siyosatning ustuvor

yoʻnalishlar, ijtimoiy himoya, uy-joy muammosi, bandlik siyosati, demografik siyosat, oilaviy farovonlik, ijtimoiy barqarorlik.

yoʻnalishlaridan biri boʻlgan yosh oilalar bilan ishlash masalasining dolzarbligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati doirasida yosh oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, bandligi, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohalaridan teng asosda foydalanish imkoniyatlarini taʼminlashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar koʻrib chiqiladi. Maqolada shuningdek, davlat tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, ijtimoiy dasturlar, imtiyoz va subsidiyalar, yosh oilalarning zamonaviy jamiyatdagi rolini kuchaytirishdagi oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar, statistik maʼlumotlar va amaliyotdagi misollar asosida yosh oilalarning ijtimoiy himoyasi tizimini rivojlantirishda samaradorlikni oshirishning muhim omillari koʻrsatib oʻtiladi.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАБОТЕ С МОЛОДЫМИ СЕМЬЯМИ

Хасан Имамназаров

Независимый научный сотрудник

Института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

Ташкент, Узбекистан

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодые семьи, социальная политика, государственная поддержка, стратегические направления, социальная защита, жилищная проблема, политика занятости, демографическая политика, благосостояние семьи, социальная стабильность.

Аннотация: В статье дается научно-теоретический анализ актуальности проблемы работы с молодыми семьями, которая является одним из приоритетных направлений современной социальной политики. В рамках социальной политики государства рассматриваются стратегические меры по улучшению социально-экономического положения молодых семей, оказанию им всесторонней поддержки, улучшению их трудовых и жилищных условий, обеспечению равного доступа к образованию и здравоохранению. В статье также анализируются роль и значение принимаемых государством нормативно-правовых актов, социальных программ, льгот и субсидий, а также роль молодых семей в укреплении их роли в

современном обществе. На основе научных источников, статистических данных и практических примеров выделены важные факторы повышения эффективности развития системы социальной защиты молодых семей.

Kirish: Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan sharoitda davlatning ijtimoiy siyosati doirasida yosh oilalar bilan ishlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, demografik salohiyati, mehnat bozorining yangilanishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti aynan yosh oilalarning ijtimoiy holatiga va ularning hayotiy barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli davlat tomonidan ushbu qatlamni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish, huquqiy, moddiy va ma'naviy jihatdan himoyalash masalalari ijtimoiy siyosatning ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda yosh oilalarning ijtimoiy farovonligini ta'minlash borasida qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, uy-joy bilan ta'minlash, bandlikni oshirish, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kabi yo'nalishlarda davlat siyosatining amaliy natijalari ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, yosh oilalarning o'ziga xos muammolari, ehtiyojlari va istiqbolli imkoniyatlari chuqur tahlil etilishi, ushbu sohadagi siyosiy va huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: G.Esping-Andersen (1999) tomonidan ilgari surilgan farovonlik davlatining uchta modeli doirasida yosh oilalarga nisbatan davlat yondashuvlarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Uning ta'kidlashicha, liberallashtirilgan, konservativ va sotsial-demokratik davlatlarda yosh oilalarga nisbatan siyosat mazmunan farqlanadi. Bu yondashuvlar keyinchalik ko'plab empirik tadqiqotlarda qo'llanilgan va keng rivojlantirilgan.

Yosh oilalarning ijtimoiy holati va davlat qo'llab-quvvatlovining samaradorligi masalasida A.Giddens (2000) "Yangi ijtimoiy kontrakt" konsepsiyasi orqali davlat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy mas'uliyatlarni qayta ko'rib chiqishni taklif etadi. U yosh oilalarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalarni parvarishlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rsatadi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham so'nggi yillarda yosh oilalar bilan ishlash bo'yicha bir qator muhim ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, A.X. Xaydarov (2021) o'z tadqiqotlarida yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning milliy modelini ishlab chiqish

zarurligini ta'kidlaydi. U iqtisodiy barqarorlik, oilaviy qadriyatlar, demografik omillar va davlatning normativ-huquqiy siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlab beradi. Shuningdek, N. Jo'rayev (2020) yosh oilalarning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy adaptatsiyasi, ijtimoiy xizmatlar tizimidagi holati va ularni modellashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Statistik tahlillar ham adabiy manbalarda muhim o'rin tutadi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Jahon banki, UNFPA kabi institutlar tomonidan e'lon qilinayotgan hisobotlarda yosh oilalarning ahvoli, ijtimoiy himoya darajasi, bolalarga oid xizmatlar sifati, gender tengligi hamda turmush darajasi kabi ko'rsatkichlar chuqur o'rganiladi. Masalan, UNFPA (2022) hisobotida Markaziy Osiyo mamlakatlarida yosh oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashdagi asosiy muammolar va yechimlar taklif qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh oilalar bilan ishlash strategiyasi nafaqat ijtimoiy siyosatning alohida elementi, balki jamiyatdagi iqtisodiy va demografik muvozanatni saqlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda taklif etilgan yondashuvlar, kontseptual asoslar va amaliy tajribalar O'zbekiston sharoitida ushbu siyosatni takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning usullari: Ushbu tadqiqotda davlat ijtimoiy siyosatining yosh oilalar bilan ishlashdagi strategik yo'nalishlarini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida turli ilmiy-uslubiy metodlar qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va amaliy manbalarni qamrab olgan bo'lib, unga empirik tahlillar, hujjatlarni kontent-analizi, statistik ma'lumotlarni solishtirma tahlil qilish hamda zamonaviy ijtimoiy siyosat nazariyalari asosida yondashildi.

Metodologik asoslar

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanadi:

- Sistemali yondashuv – yosh oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini jamiyatdagi boshqa ijtimoiy institutlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqish imkonini beradi;
- Strukturaviy-funksional tahlil – ijtimoiy siyosatning institutsional mexanizmlari, ularning yosh oilalar hayotidagi funksional vazifalarini aniqlashda qo'llanildi;
- Tarixiy-qiyosiy usul – O'zbekistonda va boshqa davlatlarda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan siyosatlarni solishtirish imkonini berdi;
- Empirik metodlar – mavjud statistik ma'lumotlar, davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar asosida amaliy tahlillar olib borildi;
- Kontent-analiz – qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari va strategik hujjatlar asosida sifat jihatidan chuqur tahlil bajarildi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, "Yoshlar daftari" tizimi, "Obod xonadon – obod mahalla" dasturi, "Yosh

oilalarni qo‘llab-quvvatlash” bo‘yicha davlat dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, UNDP, UNFPA va boshqa xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot faqat O‘zbekiston kontekstida amalga oshirilgan bo‘lib, boshqa davlatlar tajribasi faqat solishtirma yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud statistik ma’lumotlarning yetarli darajada mukammal emasligi ayrim tahlillarni umumiyashtirishga majbur qildi.

Natijalar: Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida yosh oilalar bilan ishlash borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, amaliy mexanizmlari va ularning natijalari tizimli tahlil qilindi. Quyidagi asosiy ilmiy-amaliy natijalarga erishildi:

1. Davlat siyosatining institutsional asoslari mustahkamlanmoqda

So‘nggi yillarda yosh oilalarga qaratilgan ijtimoiy siyosat davlat darajasida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, “Obod xonadon”, “Oila” markazlari faoliyati, “Yoshlar daftari” kabi tashabbuslar orqali yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashning tizimli yondashuvi shakllantirildi. Bu tashabbuslar orqali 2020–2024 yillar davomida minglab yosh oilalarga ijtimoiy yordam, kreditlar va imtiyozlar taqdim etilgan.

2. Yosh oilalarni uy-joy bilan ta‘minlashda sezilarli ijobiy siljishlar mavjud

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan arzon uy-joy dasturlari, ipoteka kreditlari, subsidiyalar va yer ajratish orqali yosh oilalarning uy-joy masalasi bosqichma-bosqich hal etilmoqda. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha 25 mingdan ortiq yosh oila yangi uy-joy bilan ta‘minlangan. Biroq hududlar bo‘yicha notekislik hamon mavjud bo‘lib, bu sohaga alohida strategik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda 2023-yilda yosh oilalarga berilgan imtiyozli ipoteka kreditlari taqsimoti (ming so‘mda, mingta holat) to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Hudud	Kreditlar soni (mingta)	O‘rtacha kredit miqdori (mln so‘m)
Toshkent	5.2	300
Andijon	3.4	270
Qashqadaryo	2.9	240
Xorazm	1.8	230
Jizzax	1.6	220
Umumiy	25.3	260 (o‘rtacha)

3. Ijtimoiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyati oshmoqda

Yosh oilalar uchun maktabgacha ta‘lim, sog‘liqni saqlash, psixologik maslahat, huquqiy yordam, kasbiy qayta tayyorlash xizmatlari kengaytirilmoqda. Davlat tomonidan homilador ayollar va yosh onalarga berilayotgan yordam miqdori ham yildan-yilga oshmoqda. Biroq, ushbu

xizmatlardan foydalanish qishloq joylarda shahar hududlariga nisbatan pastligicha qolmoqda. 2023-yilda yosh oilalar uchun mavjud ijtimoiy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari (foizda) haqidagi ma'lumotlar quyida ko'rsatib o'tilgan.

Xizmat turi	Foydalanish darajasi (%)
Sog'liqni saqlash	76
Psixologik maslahat	41
Huquqiy yordam	38
Kasbiy qayta tayyorlash	52
Bolalar bog'chasi	63

4. Bandlik va daromad manbalarini shakllantirishga qaratilgan dasturlar ijobiy samara bermoqda

Yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan "Yoshlar mehnat guzari", "Hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash", "Startap loyihalarni moliyalashtirish" kabi dasturlar yosh oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2022–2023 yillarda 100 mingdan ortiq yosh oila a'zolari o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ygan. Quyida "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida yosh oilalarga ajratilgan mablag'lar (2020–2023 yillar, mlrd so'm) haqida ma'lumotlar jadval ko'rinishida berilgan.

Yil	Ajratilgan mablag' (mlrd so'm)	Bandlik yaratish loyihalari soni
2020	950	12500
2021	1150	14200
2022	1600	16800
2023	1900	18300

5. Yosh oilalarga oid siyosatda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda

Tadqiqot davomida quyidagi muammolar aniqlangan:

- ayrim hududlarda ijtimoiy yordamga bo'lgan ehtiyoj to'liq qondirilmayapti;
- uy-joy ajratish va ipoteka kreditlari olishda byurokratik to'siqlar mavjud;
- yosh oilalar uchun mo'ljallangan dasturlar to'g'risida axborot yetkazish tizimi sust;
- ijtimoiy xizmatlarning sifat nazorati yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar, tahliliy yondashuvlar va mavjud amaliyotlar asosida shuni ta'kidlash joizki, yosh oilalarga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy siyosati O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rin egallaydi. Yosh oilalar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini tashkil etuvchi kuch sifatida davlat siyosatining doimiy e'tibor markazida bo'lishi lozim.

So'nggi yillarda ushbu sohada sezilarli islohotlar, huquqiy va institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, uy-joy bilan ta'minlash, bandlikni oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash

xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy yordam va kredit resurslariga bo‘lgan kirishni soddalashtirish borasida ijobiy natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, tizimda mavjud bo‘lgan ayrim kamchiliklar – resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik, axborot yetkazishdagi uzilishlar, byurokratik to‘siqlar, hududiy tengsizlik va xizmatlar sifatining sustligi – yanada chuqur tahlil etilib, muvofiqlashtirilgan strategik yondashuvni talab etmoqda.

Umuman olganda, yosh oilalarga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatni takomillashtirish uchun quyidagilar muhim strategik yo‘nalishlar sifatida belgilanishi lozim:

- yosh oilalar ehtiyojlarini tizimli monitoring qilish va manzilli yordam ko‘rsatish mexanizmlarini rivojlantirish;
- ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish va ularni raqamlashtirish;
- huquqiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlov tizimini kengaytirish;
- hududlararo tenglikni ta‘minlashga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish;
- yosh oilalarni tadbirkorlik, innovatsiya va zamonaviy mehnat bozoriga faol integratsiya qilish.

Mazkur xulosa tadqiqotning nazariy va amaliy asoslariga tayangan holda, mamlakat ijtimoiy siyosatini yanada samarali va inklyuziv yo‘nalishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA). Youth Situation Analysis in Central Asia. – New York, 2022. – URL: <https://www.unfpa.org> (murojaat qilingan sana: 15.05.2025).
2. Esping-Andersen, G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton University Press, 1999. – 248 b.
3. Giddens, A. The Third Way: The Renewal of Social Democracy. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 210 b.
4. Jahon banki. “Uzbekistan: Country Economic Update” – Washington D.C., 2023. – URL: <https://www.worldbank.org/uz> (murojaat qilingan sana: 10.05.2025).
5. Jo‘rayev N. Yosh oilalarning ijtimoiy adaptatsiyasida davlat va nodavlat institutlarining o‘rni // Ilm va taraqqiyot jurnali. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 67–73.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Aholining ijtimoiy holati va farovonligi bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2023. – 168 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi PQ–3839-son Qarori “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida // www.lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi PF–152-son Farmoni “O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida // www.lex.uz

9. “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi. Yosh oilalar bilan ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2022. – 92 b.

10. Xaydarov A.X. Yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosati samaradorligini oshirish masalalari // Ijtimoiy fanlarda zamonaviy tendensiyalar. – Toshkent, 2021. – №2. – B. 44–52.